

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING OILAVIY AJRIMLARINING OLDINI OLISH FAOLIYATI. AMALIYOTDAGI AJRIMLARINING AYRIM SABABLARI

*Yusupaliyev Nodirbek G'ayrat o'g'li*  
*O'zbekiston Respublikasi IIV*  
*Akademiya 3-o'quv kurs kursanti*

### ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif oilaviy ajrimlarning mazmun mohiyatini, oilaning jamiyat hayotida tutgan o'rnini, amaliyotdagi oilaviy ajrimlarning ayrim sabablarnini, oilaviy ajrimlarning oldini olish bo'yicha profilaktika inspektorlari amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha o'z mulohazalarini yoritib o'tgan.

**Калит сўзлар:** Oilaviy ajrim, notinch oila, tirik yetim, prfilaktik suhabtlar, erta nikoh, yarashuv komissiyasi.

### АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор разъяснил значение семейных разводов, роль семьи в жизни общества, некоторые причины семейных разводов на практике, а также свои комментарии о работе, которую должны проводить профилактические инспекторы по предупреждению семейных разводов.

**Ключевые слова:** *Разделение семьи, неблагополучная семья, живущая сирота, профилактические беседы, ранний брак, примирительная комиссия.*

### ANNOTATION

Through this article, the author explained the meaning of family divorces, the role of the family in the life of society, some reasons for family divorces in practice, and his comments on the work that preventive inspectors should do to prevent family divorces. .

**Key words:** *Family separation, troubled family, living orphan, preventive interviews, early marriage, reconciliation commission.*

Oila — jamiyatning asosiy bo'g'ini, muqaddas maskan. Mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat — Bosh qomusimizda oila masalasiga alohida urg'u berilgani ham bejiz emas, albatta.

Konstitutsiyamizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'zni va ta'siri beqiyos. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Ya'ni oila

ma'naviy jihatdan butun bo'lsagina, mustahkam bo'ladi. Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat esa, albatta, qudratli bo'ladi.

Oilada er-xotinning huquq va majburiyatlari yuzasidan tug'ilyotgan bahslar, turmushning darz ketishi va u bilan bog'liq mojarolar, ayrim xonadonlardagi mavjud notinch ma'naviy-ruhiy muhit natijasida sodir bo'layotgan nikohdan ajralishlar bugungi kunda jamiyatimizda jiddiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masaladir.

Arzimagan vajlar sabab oilani barbod etish, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. "Bolaning uvoli tutadi", degan gaplar ham o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Afsuski, uvol-savobni bilmaydigan, norasidalarining yetim qolishini uylamaydigan ot-onalar ham oramizda yo'q emas.

Xo'sh, nima uchun bunday holatning vujudga kelyapti? Asl sababi nimada? Tahlillarga ko'ra, bu muammoning bosh omili — ularning huquqiy bilimga yetarli darajada ega emasliklari, huquqiy savodxonlik darajasining pastligidan dalolat beradi. Shuning uchun ular ajralish holati qanday oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydilar.

E'tibor qiling, ajralish tufayli noto'liq oila vujudga keladi. Ayni kunda aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar noto'liq oilalardan ekanligi kuzatilyapti. Yoki bo'lmasa, boshqa huquqbuzarliklar, odam savdosi qurbonlari, noqonuniy yo'l bilan chet davlatlarga chiqib ketayotgan yoshlar, ayollar, albatta, bularning barchasi asosan ajralish oqibatida yuzaga kelgan hamda noto'liq oilalarda bo'layotgani achinarli.

Statistikaga nazar soladigan bo'lsak, birgina Sergeli tuman FHDYO bo'limida joriy yilning dastlabki 9 oyi mobaynida **248** ta (191 tasi sud qarorlariga asosan, 57 tasi esa o'zaro rozilik bilan FHDYO bo'limida) ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlari qayd etildi.

Oilalarning buzilish sabablari o'rganib chiqilganda, 28 ta holatda farzandsizlik, 7 tasida xiyonat, 34 tasida uzoq vaqt birga yashamaslik, 119 tasida oilaviy kelishmovchiliklar va qolgan holatlarda yoshlarimizning oila qurishga tayyor emasligi, sog'lig'iga e'tiborsizlik, yigitlarning oilani boshqarishni, ro'zg'orni moddiy ta'minlash, farzandlarni ma'nan hamda jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni o'z burchlari, deb bilmasliklari, qizlarning esa uy bekasi, onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolar tufayli yuzaga kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Qolaversa, ajrashish holatlari oilalardagi kelishmovchiliklar, o'zaro muhabbatning yo'qligi, fe'l-atvorning to'g'ri kelmasligi, er yoki xotinning kasalligi, achinarlisi, ayrim yigitlarning ichkilikbozlik, giyohvandlikka berilib ketishi yoki boshqa ayollar bilan hayot kechirishi natijasida ham kelib chiqqan.

Bilamizki, oilalar tinchligi va mustahkamligida oila boshlig'i — erkaklarning o'rni hamda mas'uliyati juda katta. Chunki hayotning qiyinchiliklarini ular o'z

yelkalariga oladilar. Afsuski, amaliyotda ko‘rib turibmizki, erkaklarning oilaviy munosabatlarda o‘z o‘rnini yo‘qotib qo‘yayotgani, ya’ni ikkinchi darajaga tushib qolayotgan holatlar ham yo‘q emas.

Xo‘sh, muammolarning oldini qanday olish zarur? Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu juda muhim ahamiyatga ega. Unda bir qator omillarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi, ya’ni oiladagi ajrimlarni oldini olishda, asosan, yoshlarni oila ilmiga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Ularda oila muqaddas qo‘rg‘on ekanligi to‘g‘risidagi targ‘ibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, ya’ni noodatiy usul va yondashuvlar asosida olib borish kerak.

Yoshlar oila atalmish muqaddas dargoh ostonasiga qadam qo‘yar ekan, “Men oila qurishga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo‘lishi uchun nimalar qilishim kerak?” degan savollarni o‘ziga bersa, mustaqil hayotga yuzaki emas, o‘ta jiddiy masala deb qarasa, oilalarda paydo bo‘ladigan ba’zi bir noxush holatlarning oldi olinadi.

Baxt qasrining poydevori chidam hamda mehnatdan bunyod bo‘lishini yoshlarimiz yurakdan his etishlari zarur. Zero, o‘z uyida baxtli bo‘lgan insongina chinakam baxtiyordir.<sup>1</sup>

Biz o‘ylaymizki asosiy ajrimlarga sabablardan biri turmush qurayotgan yoshlarni ya’ni yigit va qiz hali bir-birlarni to‘liq o‘rganmasdan shoshma shosharlik bilan turmush o‘rtoq tanlashmoqda va turmush qurmoqdalar. Turmush davomida hali hayotiy tajribalarni bo‘lmaganligi sababli turmushdagi ayrim arzimmas sinovlar ular uchun go‘yoki yechim yo‘q masaladek tuyulib, erta ayrilish tarafdori bo‘lishmoqda. O‘ylaymizki bunday ajrimlar bo‘lishidan ko‘rilgan zararining eng jiddiysi ularning hali yosh farzandlari “tirik yetim” bo‘lib qolishida. Shu sababli hudud profilaktika inspektorlari imkon qadar ajrim yoqasiga kelguncha ularani barcha kuch va imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda yarashtirish choralarini ko‘rish va ajrimning salbiy oqibatlarini ularga tushuntirib bera olishi kerak. Ajrim bo‘lish holati mahallaning nufuzini tushishiga olib kelishini inobatga olib, mahalladagi beshlik birgalashib oilaviy ajrimlarni imkoniyat qadar oldini olish choralarini ko‘rishlari lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oilaviy ajrimlar soni nega ortmoqda maqola U.Jalilova Xalq so‘zi gazetasi elektron manbaa: <https://xs.uz/uz/post/oilavij-azhrimlar-soni-nega-ortmoqda>.
2. Ахмадов, Н. Р. (2020). Причины суицидального поведения. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 60-62.
3. Ахмадов, Н. Р. (2020). ПРИЧИНЫ СУИЦИДОВ В ДЕТСКОМ И ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ. Рекомендовано к печати Ученым советом

<sup>1</sup> Oilaviy ajrimlar soni nega ortmoqda maqola U.Jalilova Xalq so‘zi gazetasi elektron manbaa: <https://xs.uz/uz/post/oilavij-azhrimlar-soni-nega-ortmoqda>.

Института психологии имени ГС Костюка НАПН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020), 14.

4. Ахмадов, Н. Р. (2019). Причины суицида среди подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 60-63.